

CHET TILINI O'QITISHDA YO'L QO'YILAYOTGAN KAMCHILIKLAR

Xo'jiyeva Xosiyatxon

Nemis tili yonalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbari dotsent N.M.Qodirova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimini yaxshilanayotganligi, yutuqlarga erishilayotganligi, O'z ustida harakat qilishi, tilni o'rghanishda tirishqoqlik bilan harakat qilishi, yaratilgan sharoitdan oqilona foydalanish, chet tillarini o'rghanish, tushunarli bo'lishi uchun turli xil metodlardan foydalanish haqida so'z boradi.*

Kalit so`zlar: *chet tillari, mazmun-mohiyat, o'qitish, foydalanish, imkoniyat, sharoit, harakat qilish, tirishqoqlik.*

Аннотация: В данной статье в настоящее время наблюдается прогресс в совершенствовании системы образования, прилагаются усилия над собой, прилагаются усилия по изучению языка, рациональному использованию созданных условий, изучению иностранных языков, различным методам обучения. понятно, речь идет об использовании.

Ключевые слова: *иностранные языки, содержание, обучение, использование, возможность, условия, действие, усердие.*

Annotation: *In this article, the improvement of the education system today, progress is being made, efforts are being made on oneself, efforts are being made to learn the language, rational use of the created conditions, learning foreign languages, different methods to be understandable. it is about use.*

Key words: *foreign languages, content, teaching, use, opportunity, conditions, action, diligence.*

Hozirgi kunda hayotimizning bir bo'lagiga aylangan ta'lim sohasining yutuq va kamchiliklari haqida so'z yuritganimizda bu bevosita o'qitish mazmuni va salohiyati mazmuniga borib taqaladi. Bugungi kunda chet tillarni o'qitilishi uchun belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmuni tanlanadi. Chet tilini oson o'zlashtirish uchun unga mos va qiziqarli metodlar tanlanadi. O'quv vositalari, jihozlari va ularga mos ravishda o'qitish shakli tanlanadi. Chet tilini o'qitishda va o'quvchi, talabalarga oson va tushunarli yetkazib berishda turli xil qiyinchiliklarga duch kelamiz, shu sabab bu kamchiliklarga sababchi bo'lgan omillarni ko'rib chiqqanimiz maqsadga muvofiq. Avvalo tanlangan darsliklarga e'tibir qaratishimiz lozim. Darsliklar xalqaro davlat ta'lim standartlari talabiga javob beradigan bo'lishi va darslikni o'qiydigan talaba, o'quvchi yoki o'rghanuvchiga tushunarli bo'lishi, til darajasining mos kelishligi asosiy vazifalardan biri. Sifatlari o'quv darsligi yoki adabiyoti nafaqat o'rghanuvchilarining balki chet tilini qiziqib o'qib o'rghanayotgan boshqa soha vakilidagi o'rghanuvchilarining qiziqishini oshiradi hatto yetaricha tayyorgarlikka ega bo'lman o'qituvchilarining kamchiliklarini ham bartaraf etadi. Bundan tashqari o'qitiladigan sinf xonalar fanga oid ko'rgazmali qurollar va zamonaviy axborot texnologiyalari jihozlari bilan jihozlangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Odatiy darajadagi rivojlanishni namoyish qiladigan har qandaz bola o'zi yashab turgan muhitda duch keladigan har qanday tilni o'rghanishga

qodir bo'lib, o'rganayotgan chet tilida bemalol muloqot qilish salohiyati namoyon bo'ladi. Patologik nuqsoni bo'limgan sog'lom bola bemalol uch va undan ortiq tilni o'rgana oladi va bu tilni o'rganish uchun unga qulay va barcha sharoitlarga ega bo'lgan sog'lom muhit zarur. Hozirda tadqiqotlarga ko'ra, chet tilini bolalikdan boshlab turli xil qiziqarli metod va yondashuvlar bilan olib borilsa, katta muvaffaqiyatga ega bo'ladi. Lekin o'quv muassasalari va oliygohlardagi darsliklarning murakkabligi, yetarlicha axborot resurslarini yetishmasligi, metodlarning eskirib qolganligi va boshqa ba'zi masalalar o'rganuvchiga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu o'rinda o'rganuvchiga ham ba'zi bir vazifa, mas'uliyatlarini eslatib o'tishimiz lozim. O'z ustida harakat qilishi, tilni o'rganishda tirishqoqlik bilan harakat qilishi, yaratilgan sharoitdan oqilona foydalanishi lozimligini uqtirish joiz. Albatta ba'zida o'rganuvchi shaxs tomonidan ham kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'ladi ammo ular o'z kamchiliklarini tushunib, o'zlar harakat qilib ularni bartaraf qilishlari kerak. Chet tilini o'qib o'rganish davomida barcha darslik va adabiyotlarni qiziqish bilan o'qib, har bir bo'limda berilgan yangi mavzu va yangi so'zlarni maroq bilan o'rganish, tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirishga ko'proq e'tibor qilinsa tilni mukammal darajada o'zlashtiradi. Albatta bunga xohish, qiziqish, intiluvchanlik va harakat kerak. Til o'qitishda yana bit jiddiy muammolardan biri boshlang'ich sinflar darsligida so'z boyligi birliklari orasida bog'liqlikning yo'qligi ya'ni iboralar va matnlarda qo'llanilgan gaplar semantik holatda bir biriga bog'lanmagan. Agar bu darsliklar bilan bog'liq bo'lgan muammolar yechilmasa kelajakda o'rganuvchi o'quvchi va talabalar ravon holatda o'zlar tanlagan chet tilida gapirishga qiynalishlari mumkin natijada kutilgan natija erishmaslik kelib chiqadi. Ba'zi holatlarda oson va sodda ko'ringan mashqlarni ham o'zlashtirishga ko'p vaqt sarflanadi. Agar o'rganuvchida tilning qo'llanilishini eshitish va o'zi qo'llash uchun imkoniyat topa olmasa, uning til o'rganishda ijobjiy rivojlanishga erishib bo'lmaydi hamda qisqa vaqt ichida allaqachon o'rgangan narsalarini yoddan chiqaradi.

Bundan tashqari metodikaning eskiriganligi, o'quv va ta'lim dasturlarining zamon talablariga to'laqonli moslashmayotgani ham jidiy sabab hisoblanadi. Bularni oldidni olish maqsadida o'quvchilarga til bilish darajasi kuchli bo'lgan o'qituvchilarni biriktirib malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim. Kurs davomida o'quvchilarga lug'atlar bilan ishlashning va tarjima usullarining sodda yo'lini o'rgatish yanada qiziqishni oshiradi. O'yinga asoslangan til o'qitish metodikalaridan foydalanish, tilni mustaqil o'rganish imkonini beradigan dasturlardan foydalanish tavsiya etiladi. Xirijiy til fani professor o'qituvchilarining o'z darslariga interfaol usullarini qo'llab, mavzularni o'quvchilarga yetkazishda e'tiborliroq bo'lishlari lozim.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T., - 2003
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi «CHet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-sonli qarori.

3.Iriskulov A.T va boshqalar Kids' English pupil's book 2sinf -Toshkent —O'zbekiston;2014